

2025-yil 7-avgust

## 2050-yilga borib jahonda vodorod ishlab chiqarish 80% ga oshib, 14,3 million tonnaga yetishi mumkin

Jahon kimyo sanoati xabarlari



2050-yilga borib jahonda vodorod ishlab chiqarish 80% ga oshib, 14,3 million tonnaga yetishi mumkin.

2050-yilga kelib dunyoda vodorod (H<sub>2</sub>) ishlab chiqarish hajmi 2024-yilga nisbatan taxminan 80% ga oshib, 14,3 million tonnaga yetishi mumkin. Bunda H<sub>2</sub>ning asosiy qismi metanni bug'li riforming qilish (SMR) usuli orqali ishlab chiqariladi. Bu haqda AQSH Energetik axborot boshqarmasi o'zining so'nggi yillik energetik tahlil hisobotida ma'lum qildi. Etanni kreking qilish va propanni degidratsiya qilish kabi kimyoviy sanoat jarayonlarida yon mahsulot sifatida ishlab chiqarilgan vodorod keyingi eng katta ta'minot manbai bo'ladi.

Elektroliz usuli orqali gaz olish sanoat texnologiyasi esa rivojlanmaydi va 2050-yilgacha uning hissasi 1% dan oshmaydi. CH<sub>4</sub> ustunlik qiladigan tabiiy gaz kabi asosan uglevodorod xomashyosidan ya'ni, metanni bug'li riforming qilish — molekulyar vodorod generatsiyasida dominant sanoat jarayoni hisoblanadi.

Bu katalitik endotermik reaksiya yuqori haroratda (700-1000°C) va o'rtacha baland bosimda (15-30 atmosfera) amalga oshadi.

### **“O'zkiyosanoat” AJ Matbuot xizmati**

#### **source:**

*"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati*

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/2050-yilga-borib-jahonda-vodorod-ishlab-chiqarish-80-g-a-oshi>